

YOSHLARNI INNOVATSION FAOLIGINI OSHIRISHDA MA'NAVIY QADRIYATLARNING O'RNI

Mirzayev Murodjon Mo'minovich

Farg'onha Politexnika instituti akademik litseyi

Matematika fani o'qituvchisi,

Abdukabirova Yulduzxon Islomjon qizi

Farg'onha Politexnika instituti akademik litseyi

Matematika fani o'qituvchisi

Annotation: Maqolada yoshlarni innovatsion faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, ilm-fan sohasidagi yutuqlar, internetdan foydalanishda onlayn tarzda o'tkazilayotgan darslar, fan to'garaklar, olimpiadalarni ijobjiy ahamiyati, yoshlarning mustaqil ishlashlarida, mustaqil fikrlashlarida ota-onalarining mas'uliyati to'g'risida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, ma'naviyat, ilm-fan, internet, onlayn dars, onlayn to'garak, onlayn olimpiada, milliy qadriyat, psixologik sog'lom oila, psixologik sog'lom bola.

Yoshlarning manfaatlarini to'liq ta'minlashga yo'naltirilgan, ularni jamiyatda o'z o'rinaliga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, iqtisodiy va g'oyaviy masifikuraviy tadbirlar mamlakatimizda ko'plab amalga oshirilmoqda. Bu ishlar doirasida yoshlarimizni inovatsion faolligini oshiradigan, ma'naviyatini yuksaltiradigan, ilm-fan cho'qqilarini mukammal egallashlari uchun hayotga qat'iy e'tiqod ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari bugungi kunning dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Inson ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan bu davrda bunday masalalarga e'tibor berilishi beziz emas. Yoshlarni axborot hurujlari va ma'naviy tahdidlardan asrash, yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalashning ustuvor omiliidir. Ma'naviyatimiz uchun o'ta tahlikali bo'lgan bir sharoitda muhtaram yurtbosimiz SH.M. Mirziyoyev yosh avlodga va ularning kelajagiga alohida e'tibor qaratmoqda. Jamiyatimiz tobora taraqqiy etib, har birimizni, ayniqsa yoshlarni teran fikrli, bilim-zakovatli bo'lishlarini taqazo etmoqda. Har bir yigit-qiz yoshligidan o'qishga, izlanishga yo'naltirilmoqda. Bunda har bir yigit-qizni psixologik jihatdan o'z "Men"ini namoyon qilishi, ya'ni shaxslararo munosabatda, ijtimoiy munosabatlarni yuritishda erkin mustaqil harakat qilish, layoqatini, qobiliyatini, ist'edodini namoyon bo'lishiga xizmat qiluvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa bugungi sharoitda onlayn va oflayn tarzda o'tkazilayotgan darslar, olimpiadalar, fan to'garaklarida o'z aksini

topmoqda. Onlayn darslar, to‘garaklar, olimpiadalar yigit va qizlarni birinchi navbatda kompyuter savodxonligini yanada oshmoqda, kompyuter bilan, uyalialoqa vositalari bilan ishslash madaniyatini, saviyasini o‘stirmoqda. Bu o‘z navbatida ota-onalarni ham kompyuter bilan, uyali aloqa vositalari bilan ishslash madaniyatini, saviyasini o‘stirmoqda. Farzandlarimizni yanada mukammalroq bilim olishlariga sharoit, zamin yaratib berishlariga undadi. Mas’uliyatini kuchaytirdi. Onlayn tarzda o‘tkazilgan darslar, fan to‘garaklari, olimpiadalar yoshlarni turli internet balosiga aylangan g‘oyaviy hurujlar, axloqiy buzuqliklardan himoya qilishga immunitet yaratdi deb ayta olamiz. Onlayn olimpiadalar bo‘yicha bir qancha quvonarli yutuqlarga erishdik.

Yurtboshimiz yoshlar tarbiyasi butun millat oldidagi ulkan mas’uliyatli vazifa ekanligini, -“Agar farzandlarimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni har daqiqada uni yurish turishi kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu-hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermask bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas”,-deya ta’kidlaganlar. O‘z navbatida davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar ertangi kunimizni o‘z qo‘llarimiz bilan quramiz degan, mustaqil fikrga ega bo‘lgan, innovatsion yutuqlarni ko‘plab qo‘lga kirta oladigan yoshlarimizni shakllantirishga turtki bo‘lmoqda. Ertangi kunimiz, porloq kelajagimiz ana shunday yoshlar qo‘lida. Bir so‘z bilan aytganda ertangi kundagi hayot-mamotimiz yoshlar qo‘lida. Shunday ekan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, uning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni o‘ylash, tinch va osoyishta hayot, do‘slik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog‘lom deganda biz faqatgina jismonan baquvvat farzandlarimizni emas, ma’naviy boy, aqliy rivojlangan, axloqiy faol, pok, ma’rifatli yoshlarni tushunmog‘imiz kerak. Bunday yoshlar o‘zlarida xalqimizni eng yaxshi fazilatlari-shukronalik, iymon va insof, mehr- oqibat, shavqat va rahmlilik, uyat va andisha, or-nomus, o‘zaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, eliga, xalqiga sadoqat bilan xizmat qiladigan qadriyat va g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim. Bunda yoshlar tarbiyalanayotgan, voyaga yetayotgan oiladagi sog‘lom psixologik muhitning, sog‘lom psixologik oila-sog‘lom psixologik bola tamoyilining o‘rni beqiyosdir.

Hozirgi globallashuv sharoitida muayyan siyosiy va mafkuraviy maqsadlarni ko‘zlab yolg‘on va sohta bo‘lsa ham, ayrim mafkuraviy tushuncha va g‘oyalarni yoshlar ongiga olib kirish bilan bog‘liq ma’naviy tahdidlar mavjud. Ana shunday davrda hayotiy ideallarni qayerdan izlash, nimani mo‘ljal olishni bilish, yoshlarda qanday ezgu g‘oya va tushunchalar asosida ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otish muhim ahamiyatga ega. Har bir ezgu niyatli kishi yaxshi yashashga intiladi. Yaxshi yashash uchun yaxshi ishslash, ilm-fan sirlarini egallash, biror kasbning egasi bolish birdan-bir to‘g‘ri yo‘ldir. Shunda ota-onalarning hayot yo‘li, hayot tarzi, ilm va kasbga bo‘lgan muhabbati, u orqali erishgan yutuqlari farzandlar uchun, ya’ni yoshlar uchun

ibrat maktabi vazifasini odaydi. Ota-onalar o‘zлari bilib yoki bilmagan holda shunday tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega bo‘lishlarini sezishlari judayam muhim. Bugungi kun yoshlari hayotdagi o‘zgarishlarni chuqur his qilishlari va turli xil idrok etishlari hamda bozor iqtisodiyoti, o‘zaro raqobat muhiti talablariga javob bera olishlari, kelajak avlod oldidagi ijtimoiy mas’uliyatni chuqur anglashlari, mustaqil fikrga va fikrlash madaniyatiga ega bodishlari, yangi ixtiolar, kashfiyotlar qilishga, izlanishga moyil bo‘lishlari, tadbirkorlik bilimlarini puxta egallashlari, har bir ishda milliy manfaatlarimiz ustivorligi tamoyillariga amal qilishlari, axloqsizlik kabi salbiy unsurlardan yiroq bo‘lishlari, o‘zlarida vatanparvarlik fazilatlari bilan mustaqillikni mustahkamlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shishlari lozim. Tez o‘zgarib borayotgan zamonda - axborot asrida befarq va bebarvo bo‘lmasdan sergak yashash, har qanday xabarni tezkor uzatish va qabul qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan, inson o‘z uyida o‘tirganicha dunyoning turli chekkalarida qanday voqeа-hodisalar yuz berayotganini nafaqat eshitish, ayni choqda, ko‘rib kuzatish, xatto o‘z munosabatini bildirish imkoniyatiga ega bo‘lgan sharoitda har bir ota-ona, har bir pedagog, har bir inson nihoyatda xushyor bo‘lishi zarur. Davlatimiz rahbari barcha ommaviy axborot vositalari qatori internet yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochishini ta’kidlab: -“Internet bu- katta bir do‘kon” do‘konga borganda odam xohlagan molini sotib oladi. Internetni ham shunday bir bozor, ya’ni axborot bozori deb tushunish kerak”-deydi. Yoshlar internet bozoriga kirganda faqat o‘zi uchun zarur narsani olsin, internetdagi axborotdan foydalanish madaniyatini o‘rgansin. Bunda bugungi vaziyatda pedagoglarning o‘tkazayotgan darslar, to‘garaklar, olimpiadalarni sifatli va qiziqarli qilib tashkil etish, o‘zi mas’ul bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarni ota- onalari bilan uzviy aloqa o‘rnatgan holda jalb qilish, axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish va izchil yuksaltirishni tarkib toptirish vazifasi birinchi o‘rinda turadi. Axborot iste’moli madaniyati shakllangan har bir yigit - qizda milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma’lumotlar bilan tanishish paytida ularni o‘z qarashlari, qadriyatları tizimiga tayangan holda baholay oladi. Internetning imkoniyatlaridan Vatanimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida keng yoyish maqsadida foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” 2022-yil.
2. B.X.Daniyarov,A.E.Rahimov,F.H.Jabborov “Axborot asirida ta’lim - tarbiya”T-Akadem nashr 2012-yil.24-25-bet.
3. F.Akbarova,B.Ahmedov,V.Karimova,A.Kamilov,M.Komilov,A.Xolbekov,R.Shomansurova,D.Yakubova “Hayot kitobi” ,”Sharq ” nashriyot-matbaa aksionerlik kompaniyasi bosh tahririyati.T-2011.84-bet.